

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA NUTQ O`STIRISH MASHG`ULOTIDA LUG`AT ISHI

Buxoro viloyati G'ijduvon tuman
Pedagogika kolleji maxsus fan o'qituvchisi

Abdullayeva Dilnoza Erkinovna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10419598>

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tarbiyalanuvchilarning nutqini o`stirish uchun kerak bo`ladigan mashg`ulotlar haqida batafsil ma`lumot berib o`tilgan. Magtabgacha yoshdagi bolalarning nutqini shakllantirish ularning o`ziga bo`lgan ishonchini oshirishga va kelajakda bilimlarni yuqori darajada o`zlashtirishiga sabab bo`ladi.

Kalit so`zlar: Bog`cha yoshidagi bolalar, nutqning grammatik qurilishi, nutq o`stirish uslubi, nutqni rivojlantiruvchi metodikalar.

VOCABULARY WORK IN SPEECH DEVELOPMENT COURSE IN PRESCHOOL EDUCATION ORGANIZATION

Abstract. This article provides detailed information about the activities needed to develop the speech of children in preschool educational organizations. The formation of the speech of preschool children helps to increase their self-confidence and acquire knowledge at a high level in the future. It causes him to learn.

Key words: Kindergarten children, grammatical structure of speech, method of speech development, methods of speech development.

СЛОВАРНАЯ РАБОТА НА ЗАНЯТИИ ПО РАЗВИТИЮ РЕЧИ В ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ

Аннотация. В данной статье подробно описаны мероприятия, необходимые для развития речи воспитанников в дошкольных организациях. Формирование речи дошкольников способствует повышению их уверенности в себе и в дальнейшем высокому уровню усвоения знаний.

Ключевые слова: дети дошкольного возраста, грамматическое построение речи, стиль развития речи, речевые развивающие методики.

KIRISH.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarga ta'lim va tarbiya berishda eng asosiy vazifalardan biri bolalarga ona tilini o`rgatish, nutqini rivojlantirish, nutqiy munosabatga, muomalaga o`rgatishdir. Nutq rivojlantirish metodikasi pedagogik fan bo`lib, maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni shakllantirishga qaratilgan pedagogik qonuniyatlarni o`rganadi.

Nutq rivojlantirish metodikasi fanining asosiy vazifasi-nutq o`stirish uslubi va uslubiyotlarini, ularning eng samarali vositalarini ilmiy-pedagogik asoslarda ishlab chiqish va tarbiyachilarni ular bilan ta'minlashdan iboratdir. Tarbiyachilar esa o`zlashtirilgan uslub va uslubiyot yordamida bolalarda zaruriy nutqiy malaka va ko`nikmalarni rivojlantirishga harakat qiladilar. Nutq rivojlantirish metodikasining maqsadi bolalarning og`zaki nutqini rivojlantirishdan, atrofdegilar bilan nutqiy muloqotda bo`lish malakasini shakllantirishdan iborat.

Nutqning grammatik qurilishining shakllanishida yetakchi mexanizm bola tomonidan til qonuniyatlari, til umumlashmalarini o'zlashtirish hisoblanadi. Chunki til qonuniyatlari va til umumlashmalari mazmuni nutqiy faoliyatda amalga oshirish imkonini beradi. Nutq paydo bo'lishidagi grammatik operatsiyalar haddan tashqari murakkab bo'lib, u yuqori darajadagi analiz-sintez faoliyatining yetarlicha rivojlanganligini ko'zda tutadi. Shuning uchun ham, biz aynan 6-7 yoshli alaliya nutq kamchiligiga ega bolalar bilan nutq o'stirish, nutq madaniyati, savodga o'rgatish mashg'ulotlarida foydalanish mumkin bo'lgan mashg'ulotlar namunasini ishlab chiqdik.

Alaliya – tizimli nutq nuqsoni bo'lib, tovushlar talaffuzi, fonematik idrok etish, so'zlarning bo'g'in tuzilishi, so'zlardagi barcha tovushlarning to'liq bo'lishi, nutqning grammatik tuzilishidagi bir qator kamchiliklar bu nuqsonga xos hisoblanadi.

Nutqiy vositalarning yetishmasligi maktabga borishni boshlagan bola uchun dastlabki vaqtda juda katta muammolarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham maktabgacha yosh davrida nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar bolaga mutaxassislar ko'rsatayotgan yordamga e'tiborsiz qarab bo'lmaydi.

Logopedik ishlarning samarador bo'lishi uchun bolaga kompleks ravishda tibbiy-pedagogik yondoshish talab etiladi va bu jarayon quyidagicha amalga oshirilishi taklif etiladi:

- dori-darmon bilan davolash va psixoterapiya;
- mutaxassislarning logopedik ta'siri;
- ota-onalar va tarbiyachilarning yuqori darajadagi yordamlari;
- bolalarda mavjud bo'lgan barcha kamchiliklardan iborat simptomlar kompleksni hisobga olgan holda korreksion ishlarning neyropsixologik yo'nalganligi.

«Lug'atni egallash» atamasi – bu nafaqat so'zni o'zlashtirish, uni tushunish, balki uni albatta qo'llash, nutqiy faoliyatda foydalanish demakdir. Insonning yuqori nutq madaniyati, lug'atining boyligi haqida u «eshitilgan», insonning jonli nutqini bezab turgan taqdiridagina so'z yuritish mumkin. Lug'at ishidagi asosiy jihat – bu faqat bolalarga yangi so'zni tanishtirish emas, balki ularni faol nutqqa kiritishdir.

Maktabgacha ta'lim muassasasidagi lug'at ishi – bu bolalarning faol lug'atini notanish yoki ular uchun qiyin bo'lgan so'zlar bilan reja asosida boyitib borishdan iboratdir. O'zbek tili lug'ati to'xtovsiz tarixiy rivojlanish jarayonida bo'ladi. Undagi o'zgarishlar eng avvalo insonning ishlab chiqarish faoliyati, jamiyatning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Yangi narsalar va hodisalarning paydo bo'lishi bilan ularni nomlovchi yangi tushunchalar va so'zlar ham paydo bo'ladi. Bundan tashqari ilgaridan mavjud bo'lgan ayrim so'zlar yangilanadi, ularning ma'nosi o'zgaradi, ko'p so'zlar muomaladan chiqib ketadi. Bolalar bilan lug'at ishlarini o'tkazishda so'zning rivojlanuvchi tusga egaligini hisobga olish zarur.

O'zbek tilining lug'at tarkibini umumiy qo'llanishdagi leksika tashkil qiladi. Bu o'zbek tilida so'zlashayotgan odamlarga qo'shimcha izohlarsiz tushunarli bo'lgan va muomala uchun zarur bo'lgan so'zlar guruhidir. U uzoq vaqt mobaynida yaratilgan. Bu leksikaga nutqning turli qismlari kiradi. Maktabgacha ta'lim muassasasida lug'at ishining mazmunini asosan umumiy qo'llanishdagi leksika tashkil etishi tufayli tarbiyachi bolalar nutqini nafaqat otlar bilan, balki fe'llar, sanoq so'zlar, old ko'makchilar, sifatlar va boshqa nutq qismlari bilan ham boyitishi zarur.

Bolalar lugʻatini folklor elementlari (qoʻzim, toychogʻim, ona qizim) bilan ham boyitish darkor, chunki maʼlum xollarda (qayta hikoya qilish mashgʻulotlari, ertak toʻqish, sahnalashtirish, oʻyinlar va boshq.) ular bolalar nutqiga kiritish uchun ataylab taklif qilinadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan lugʻat ishini olib borishning nazariy asoslari, tevarak-atrof bilan tanishtirishning ahamiyati, bolalar tomonidan lugʻatni oʻzlashtirish xususiyatlari, tevarak-atrof bilan tanishtirish va lugʻat ustida ishlash maktabgacha taʼlim muassasasi tarbiyachilarining oldiga qoʻyilgan eng muhim vazifalardan biridir. Maktabgacha tarbiya yoshi bolalarning voqelikni faol idrok qiladigan va tevarak-atrofdagi hayotga kirishib ketadigan bir davrdir, bu davrda ularning soʻz boyligi juda tez oʻsib boradi.

Tarbiyachi bolalarni tevarak-atrof bilan (narsalar, jonli tabiat hodisalari, ijtimoiy hayot hodisalari) tanishtirar, ularning bilish faoliyatini yoʻlga qoʻyar va boshqarar ekan, har bir bolaga uning toʻplagan tajribasini tartibga solishda yordamlashadi, unga yangi bilimlar beradi, unda qiziquvchanlik va kuzatuvchanlik qobiliyatlarini tarbiyalaydi, oʻzini qurshab turgan olamni bilishga boʻlgan qiziqishini oʻstiradi. Bola nutqining taraqqiyoti uning atrofidagi odamlar nutqiga, tevarak-atrofdagi narsa-buyumlarni, ijtimoiy hayot hodisalarini kuzatishiga bogʻliq boʻladi.

Yuqoridagi fikrlardan bizga maʼlumki (ilk yoshdagi bolalar nutqining rivojlanish xususiyatlari mavzusida bayon etilgan fikrlar), yangi tugʻilgan chaqaloqlar yigʻlash orqali tashqi va ichki muhitdan keladigan signallarga (ochlik, tashnalik, sovuq, biror joyning ogʻrishi yoki issiqlash va hokazolarga) javob beradi.

Bola 2-3 oylik boʻlganda katta kishilarning gaplariga, tevarak-atrofdagi gʻala-gʻovurlarga diqqat bilan quloq soladi, rangli narsalarga qaraydi va ularga nisbatan tovush chiqara boshlaydi.

Bir yoshdan bir yarim yoshgacha boʻlgan bola nutqining xarakterli belgisi shundaki, bola aytadigan soʻzlar miqdori juda kam boʻladi, yaʼni uning faol lugʻati juda tez oʻsib boradi. Bu yoshda bola lugʻatining boyib borishi tevarak-atrofdagi kishilar nutqini tushunish qobiliyatining oʻsishiga bogʻliq boʻladi. Bola oʻziga aytilgan soʻzlarni yaxshiroq tushunadigan boʻladi. Uning sust lugʻati oʻsib boradi, oʻzi yaxshi gapirmaydi, ammo boshqalarning soʻzini koʻproq eshitib, eshitgan soʻz va jummalarni oʻziga singdirib boradi va shuning zamirida keyinchalik oʻz nutqini yuzaga keltiradi va boyitib boradi. Mana shu xususiyatlarni hisobga olgan pedagog-tarbiyachi bolalar idrok qiladigan nutq, soʻz va gaplarning mumkin qadar boy, rangbarang va toʻgʻri boʻlishiga harakat qilishi kerakki, bu ularda ogʻzaki-mantiqiy fikrlash qobiliyatining paydo boʻlishiga taʼsir etishi lozim. Bolada ogʻzaki-mantiqiy fikrning paydo bolishi esa ularning elementar tushunchalarni (balandlik, yaxshi, yomon va hokazolar) oʻzlashtirib olishlariga yordam beradi.

Bola bir yoshga toʻlganda faol lugʻati tez oʻsadi. Bola aytadigan soʻzlarning miqdori birdaniga ortib ketadi. Bolaning kattalar nutqiga taqlid qilishi yangi soʻzlarni bilib olishida katta ahamiyat kasb etadi. Endi u kattalarning soʻzlariga ongli ravishda, uning maʼnosiga tushunib taqlid qila boshlaydi. Ikki yoshga kirganda uning nutqi maʼnoli boʻla boshlaydi. Narsalarni oʻz nomi bilan atay boshlaydi. Chunonchi, vov-vov-kuchuk, miyov-miyov mushuk, chiq-chiq- soat va hokazolar. Endi bola «Bu nima? Nomi nima?» degan savollar bera boshlaydi.

Bu savollar uning oʻta sinchkovligi, miyasida narsa bilan uning nomi (yaʼni soʻz) oʻrtasida yangi bogʻlanishlar paydo boʻlganligidan dalolatdir. Dastlabki paytda bola narsalarni bildiruvchi soʻzlarni koʻproq ishlatsa, keyinchalik ish-harakatning nomini bildiruvchi soʻzlarni ham ishlata

boshlaydi. Ikki yoshga to'lgan bolaning so'z boyligi 250-300 taga yetadi. Uch yoshga qadam qo'yishi bilan uning lug'atida fazoviy munosabatlarni bildiruvchi orqada, yuqorida, pastda, yonda kabi ba'zi so'zlar paydo bo'la boshlaydi. Uch yoshning oxiriga borganda bola tevarak-atrofidagi kishilarning nutqini tobora mukammalroq tushunadigan bo'ladi, ularning aytib bergan hikoyalarini, kichik she'rlarni, ashula va ertaklarni diqqat bilan tinglaydi, yangi so'zlarni o'zlashtirib boradi. Kattalarga: Buning nomi nima? Nima uchun? Nega degan savollarni tinmay beradigan bo'ladi.

Leksikaning asosiy hajmini mustaqil ma'noga ega bo'lgan so'zlar (otlar, sifatlar, ravishlar, fe'llar) so'zlar tashkil etadi. Bular eng to'la xuquqli so'zlar bo'lib, ular nomlar sifatida xizmat qiladi. Tushunchani ifodalaydi va gapning asosi bo'lib xizmat qiladi (ya'ni, ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, xol vazifasida chiqadi). Pirovardida, bolalar nutqini boyitish eng avvalo mustaqil ma'noga ega bo'lgan so'zlar sohasida olib borilishi lozim. Sanoq so'zlarni o'zlashtirish bolalarga ancha qiyin kechadi. Bolalar nutqini sanoq so'zlar bilan boyitish asosan, ularda matematik tasavvurlarni shakllantirishga doir mashg'ulotlarda ro'y beradi, ushbu so'zlarni faollashtirish va mustahkamlash ona tili mashg'ulotlarida lug'at ishining maxsus mavzusi bo'lmog'i lozim.

Maktabgacha yoshda bola shunday lug'atga ega bo'lishi lozimki, toki u bolaga tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilish, maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish, adabiyotni, televizion va radio eshittirishlarini tushunish imkonini bersin.

XULOSA

Tarbiyachi bolalar o'yiniga rahbarlik qilar ekan, ularning bir-birlari bilan samimiy ohangda, muloyim so'zlashishga o'rgatadi. Shuning uchun ham tarbiyachi bolalar lug'atini va bilimini o'yin jarayonida kengaytirish yo'llarini oldindan puxta o'ylab qo'yishi kerak: o'yinni buyumlar bilan, milliy kiyimlardagi bolalarni tasvirlovchi qo'g'irchoqlar bilan tashkil etish, o'yinga va bolalar nutqiga rahbarlik qilish (tarbiyachining bolalarga o'qib yoki hikoya qilib berishi, o'yin to'g'risida savollar va jamoa bo'lib gapirib berish va hokazo).

Bolalarning rolli o'yinlariga, ular nutqiga rahbarlik qilishda qanday usullardan foydalanilsa, boshqa o'yinlarda ham shu usullarda foydalaniladi.

Bolalar lug'atini boyitish, ularning ijodiy faoliyatlarida tasviriy san'at bilan tanishish tasviriy faoliyat mashg'ulotlari jarayonida ham amalga oshiriladi.

Masalan, tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida bolalar ranglarning nomlaini, ularning farqlarini, materiallarning nomlarini (yelim, loy, plastilin, bo'yoq va hokazo), tasviriy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan (bo'yash, botirish, qirqish, yasash, rasm solish), materiallarning sifatiga doir (oq rangli qog'oz, rangli qalamlar kabi) maxsus so'zlarni o'zlashtirib oladilar. Teleko'rsatuvlarni, kinofilmlarni tomosha qilish bolalarning dunyoqarashini kengaytiradi, ular uchun notanish, yangi bo'lgan so'zlarning tushunarla bo'lishiga yordam beradi.

REFERENCES

1. Ayupova M.Yu. Logopediya. - T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2007, 2011. –600 b.
2. Ayupova M.Yu., Aripova Sh.D. To'g'ri talaffuz qilamiz va yozamiz. Metodik qo'llanma. – T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2015. –236 b.

3. Жукова Н.С. Если Ваш ребенок отстает в развитии [Текст] / Н.С. Жукова, Е.М. Мастюкова. - М.: Медицина, 1993. - 112 с.
4. Миронова С.А. Развитие речи дошкольников на логопедических занятиях. / С.А.Миронова – М.: Просвещение, 1991. &ndash
5. То‘rayeva U., Shodmonova D. “O‘zbek tilining zid ma’noli so‘zlar o‘quv lug‘ati” 2007-2009
6. Umumiy o‘rta ta‘limning Davlat ta‘lim standartlari va o‘quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. «Ta‘lim taraqqiyoti». 1-maxsus son. -T.: Sharq, 1999. -B.55-145. - 304
7. V.N.Sergeyev. slovari nashi družya i pomoshniki. M.: Prosvesheniye. 1984.-143 s.
8. V.V.Morkovkin. Uchebnaya leksikografiya kak osobaya lingvometodologicheskaya dissiplina. M.: Russkiy yazyk. 1977, S-28-45
9. Vvedenskaya L.A. "Uchebniy slovar omonimov russkogo yazika" 2005-2010.; "Shkolniy orfoepicheskiy slovar russkogo yazika" 2006-2010.; «Uchebniy slovar sinonimov russkogo yazika» 2005-2010.; "Uchebniy slovar paronimov russkogo yazika"2006-2010.; «Uchebniy slovar antonimov russkogo yazika" 2005-2010.; va hk.
10. X.Norxo‘jayeva “O‘zbek tilining eskirgan so‘zlar o‘quv lug‘ati” 2006
11. X.Suvonova G.Turdiyeva “O‘zbek tilining shakldosh so‘zlar o‘quv lug‘ati” 2007-2009
12. Xamrayeva Y. “O‘zbek tilining o‘zlashma so‘zlar o‘quv lug‘ati” 2007-2009